

TIL O'RGANISHNING SAMARALI METODLARI

Axmedjanova Farida Djavairovna

SamDChTI o'qituvchisi

Ro'zimurotova E'zozxon Husniddin qizi

SamDChTI talabasi

Annotatsiya: Bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda chet tillarini bilish muhim ko'nikmaga aylanib bormoqda. Biroq aksariyat o'rganuvchilar an'anaviy yondashuvlar bilan til o'rganishda biroz qiyinchiliklarga duch keladi yoki zerikib, jarayondan voz kechadi. Shu sababli, ushbu maqolada zamonaviy va samarali til o'rganish usullari, innovatsion texnologiyalar, o'yinlashtirish va immersiv yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Ushbu mavzuni yoritishimning asosiy sababi – til o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam berish hamda o'quvchilarga mos keladigan usulni topishda yo'l-yo'riq ko'rsatishdir.

Kalit so'zlar: Til o'rganish, chet tili, innovatsion texnologiyalar, o'yinlashtirish, samarali metodlar.

Shubhasiz, til o'rganish bugungi davrning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Misol uchun, Buyuk Britaniyada tilni maktabdan o'rganishga chuqur e'tibor berilmaganligi tufayli mamlakat har yili £48 miqdoridan ko'p xalqaro biznes imkoniyatlarini qo'ldan boy beradi. Aslida biz nega chet tilini o'rganishga ehtiyoj sezamiz? Bu bir qancha sabablar tufayli bo'lishi mumkin[1, 11]. Ayrim odamlar chet elda o'qish, yoki sayohat qilish uchun muayyan tilni o'rgansa, boshqalar ma'lum bir kasb egasi bo'lish, ya'ni kariyera uchun o'rganishadi. Nima bo'lgan taqdirda ham tilni samarali tarzda o'rganish va undan erkin foydalana olish asosiy maqsad hisoblanadi. Negaki, xorijiy tilni o'rganish orqali xotirani mustahkamlash, ushbu jarayonda boshqa mamlakatlarning urf-odatlarini, madaniyatlarini o'rganib, dunyoqarashni turli nuqtai nazardan kengaytirish va jamiyat o'rtasida ochiq fikrga ega bo'lish mumkin. Biroq bu borada an'anaviy metodlar doim ham ish bermaydi yoki ular ko'pchilik tomondan zerikarli deb aytib o'tiladi[2, 357].

1. Innovatsion texnologiyalar orqali til o'rganish hozirgi zamonning eng keng tarqalgan metodlaridan biri hisoblanadi. Ular har tomonlama qulay, ortiqcha vaqt va mablag' talab qilmagan holda til o'rganish imkonini beradi. Masalan, Duolingo, Memrise kabi ilovalar yangi so'z yodlash hamda ularni muntazam ravishda takrorlab turish uchun juda foydali. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda video va interaktiv kurslarga qatnashish, BBC learning English, Udeemy and Khan academy kabi platformalardan foydalanib, 4 ko'nikma asosida til o'rganish mumkin. Bundan tashqari, smartfondan foydalangan holda ovozni yozib olish, uni qayta tinglash va xatolarni tahlil qilish ham til o'rganishda qo'llaniladigan tadbirlardan biridir [3, 11].

2.O'yinlar orqali til o'rganish ham qiziqarli va samarali usullardan biri hisoblanadi. Chunki o'yinlar o'rganuvchiga doimiy ravishda yangi so'zlarni o'rgatadi, interaktiv muhit yaratadi va real hayotga yaqin tajriba beradi. Bu usul maktab o'quvchilariga til o'rgatishda ham qiziqarli usul sifatida tan olingan. Shuni aytib o'tish joizki, bolalarga til o'rgatishda shunday o'yinlardan foydalanish kerakki, unda barcha o'quvchilar birdek ishtirok etishsin hamda darsdan yangilik olishsin. O'yin davomida berilgan topshiriqlar, muloqot va vazifalar o'yinchini chet tilida fikrlashga majbur qiladi. Masalan, RPG o'yinlari, strategik va interaktiv hikoya asosidagi o'yinlar orqali yangi so'zlarni kontekstda o'rganish mumkin. Shuningdek, onlayn ko'p o'yinchi rejimida (multiplayer) boshqa o'yinchilar bilan suhbat qilish, chet tilida yozish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'yinlar ichida matnli topshiriqlar, subtitrlar va ovozli dialoglar bo'lishi esa tinglab tushunish va talaffuzni rivojlantirish uchun ayni muddao. Shu sababli, o'yinlar yordamida chet tilini o'rganish nafaqat foydali, balki zavqli jarayonga ham aylanadi[4, 38].

3. Og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlanishi haqida Krashen nazariyasiga ko'ra, navbatdagi kontroler – nazoratchi gipotezasida olim til o'rganuvchi tilni faqat qonun qoidalar asosida o'rganish haqida mulohazasida o'rganilayotgan chet tilida gapirayotganda o'rganuvchining ongi ifodalayotgan fikrni grammatik, fonetik o'rganilgan qoidalar asosida tuzilayotganligini nazorat qiladi, ba'zi o'rganuvchilarga miyaning bunday boshqaruvi chet tilida gapirishga uyalish ikkilanish hissini beradi. Olimning fikricha, ong nazoratini chegaralash, ya'ni xato qilishdan qo'rqmaslik chet tilida gapirish ko'nikmasini yaxshiroq rivojlanishiga olib keladi. Qisqa qilib aytganda, onging tilga ko'chayotgan fikri ustidan nazoratini chegaralash, tilga ko'chgan fikr miyada tahlil qilinganda xato kamchiliklar aniqlansa-da, fikrni ifodalashdan uyalmaslik lozim bo'ladi va natijada vaqt o'tib brogan sari kamchiliklar o'z-o'zidan yaxshilanib boradi[5, 62].

4. O'rganganni o'rgatish. Ushbu metod eng samarali usullardan bir bo'lishi shubhasiz. Masalan, kuniga chet tiliga oid yangi iboralar, grammatik qoidalarini o'rganish, lug'atlar yodlash hamda ularni kimgadir aytib berish, tushuntirib berishga harakat qilish, ushbu ma'lumotlarning xotirada uzoq muddat saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, o'zlashtirilgan bilimni o'zgalarga tushuntirish uchun siz tilni chuqurroq tahlil qilish va tushunish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bundan tashqari, ushbu usul talaffuz va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ayni muddao.

Xulosa

Ushbu zamonaviy metodlardan foydalangan holda til o'rganish jarayonini samaraliroq va qiziqarli qilish mumkin. Chet tilini o'rganishda texnologiyalardan oqilona foydalana bilish, jarayonni turli xil metodlar bilan boyitish rivojlanishning eng asosiy omillaridir. Eng muhimi, inson o'ziga mos usulni tanlashi va uni doimiy qo'llashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalolov. J - Chet tilini o'qitish metodikasi - Toshkent -1996, 11- bet.
2. Muslimov N.A. ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning metodik asoslari: Ped.fanl.dokt. diss. - T.: 2007. - 357 b.
3. Нишоновна З.Т. Мустакил ижодий фикрлашни шакллантиришнинг психологик асослари: Псих.фан док. дис. - Т., 2005.- 11-р.
4. Jack C. Richards (2006) Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press. 38-p
5. 2. Artemov V.A. Psychology of visibility in teaching. - M.: Enlightenment, 2016, 62 p.
6. Shomurodova Shahlo Jaxonovna. Features of semantic and stylistic transformations of stable word combinations. International Journal of Early Childhood Special Education. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=lpUNsSYAAAAJ&citation_for_view=lpUNsSYAAAAJ:MXK_kJrjxJIC
7. Makhzuna Ismatova. The using of coaching for scientific guidance of english learner's graduate qualifying works. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=0mLmjKEAAAAJ&citation_for_view=0mLmjKEAAAAJ:hqOjcs7Dif8C
8. Rayhona Narzikulova. Scrutinizing materials in organizing class for high school students. Asian Journal of Multidimensional Research. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Aeo3Rb0AAAAJ&citation_for_view=Aeo3Rb0AAAAJ:d1gkVwhDpl0C
9. Sherzodovich, A. S., & Jamshedovich, B. F. THE MAIN FEATURES OF THE TRANSLATION OF LITERARY TEXT. Sciencepublish. org, 16.
10. Aslonov, S. S. (2020). Ingliz tili stilistikasi fanini o'qitishda fonostilistikaning o'rni. Интернаука, (16-4), 57-59.
11. Ruzimurodova, Z., & Aslonov, S. (2020). WHAT TO TEACH TO THE STUDENTS? TO TEACH STANDARD ENGLISH OR WORLD ENGLISHES?. In МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ (pp. 367-369).
12. Аслонов, III. (2024). The importance of Artificial Intelligence in the teaching of translation theory and practice. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(5), 50-53.